

Hisobotli taqdimot

2019 - yil 5 - yanvar kuni institutning 6 - ma'ruzalar zalida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetida ilmiy - tadqiqot faoliyatini tashkillashtirish, ilmiy - pedagogik kadrlar tayyorlash, iqtidorli talaba - yoshlar bilan ishlash, ilmiy - tadqiqot natijalarini o'quv va ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish borasida 2018 yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan YILLIK HISOBOTi taqdimoti bo'lib o'tdi. Taqdimotda fakultet dekani U.Qo'ziyev tomonidan yo'nalish bo'yicha to'liq ma'lumotlar taqdim qilindi. Qiziqarli mulohazalarga boy tarzda o'tkazilgan taqdimot ko'pchilikda iliq taassurot qoldirdi. Yig'ilishida fakultet professor-o'qituvchilari hamda xodimlari ishtiroy etishdi. Professor B.Xudoyorov, kafedra mudirlari A.Igamberdiyev, X.Turkmenovlar so'zga chiqib, taqdimot yuzasidan o'z mulohazalarini bildirdilar.



QXM fakulteti dekan o'rribosari Ikrom Rahimov axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov